

**QO‘QON DAVLAT PEDOGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

XUSANOV ELDORBЕК DAVLATJON O‘G‘LI

**TURLI TIZIMLI TILLARDA DIALEKTAL LEKSIKANING
FUNKSIONAL-SEMANTIK VA LINGVOKULTUROLOGIK
XUSUSIYATLARI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Xusanov Eldorbek Davlatjon o‘g‘li

Turli tizimli tillarda dialektal leksikaning funksional-semantik va lingvokulturologik xususiyatlari.....3

Khusanov Eldorbek Davlatjon ogli

Functional-semantic and linguoculturological features of different system language dialectal lexicon.....27

Хусанов Элдорбек Давлатжон угли

Функционально-семантические и лингвокультурологические особенности диалектной лексики разносистемных языков.....47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....51

**QO‘QON DAVLAT PEDOGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

XUSANOV ELDORBЕК DAVLATJON O‘G‘LI

**TURLI TIZIMLI TILLARDA DIALEKTAL LEKSIKANING
FUNKSIONAL-SEMANTIK VA LINGVOKULTUROLOGIK
XUSUSIYATLARI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil.2699 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Qo'qon davlat pedagogika institutining veb-sahifasi (www.kspi.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Madjidova Ra'no Urishevna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Umarova Nargizaxon Rustamovna
filologiya fanlari doktori(DSc), professor

Xayrullayev Xurshid Zayniyevich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat chet tillar instituti

Dissertatsiya himoyasi Qo'qon davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 28 mart soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150700, O'zbekiston, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi, 23-uy. Tel: (99873) 542-38-38; faks: (99873) 542-11-43; e-mail: quqondpi@umail.uz.)

Dissertatsiya bilan Qo'qon davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150700, O'zbekiston, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi, 23-uy. Tel: (99890) 508-64-42)


Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 18 mart kuni tarqatildi.
(2025-yil 18 mart dagi № 24 -raqamli reestr buyonnomasi)

M.X.Hakimov

M.X.Hakimov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

A.To'raxojayeva
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

A.I.Ziyayev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida turli tizimli tillaridagi ijtimoiy dialektikaning mohiyati, dialektal leksikaning mintaqaviy va regional xususiyatlari, chegaralangan va chegaralanmagan leksika masalalari tadqiqiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu mavzu doirasida sotsiolingvistika, etnolingvistika, kognitiv va kommunikativ lingvistika kabi tilshunoslikning zamonaviy sohalarida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar ko'lamini, shuningdek, antropolingvistika hamda lingvomadaniyatshunoslikning bugungi kundagi rivoji va taraqqiyoti sezilarli ravishda ortib borayotganligi quvonarli hol. Shu o'rinda aytish kerakki, sotsiolingvistika fanining tom ma'nodagi asoschisi F. de Sossyur bundan bir asr avval tilning ijtimoiy tomonini til bilan bir sharoitda, ya'ni bir zamon va bir makonda yashab kelayotgan shart-sharoitlar asosida tadqiq etilishi har qanday lingvistik birliklarning to'laqonli ilmiy mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkinligi haqida fikr yuritganda to'laqonli haq edi, chunki tilning ijtimoiy jihatlarini ham ilmiy jihatdan o'rganish tilshunoslikning bugungi kunda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan eng muhim vazifalaridan biri sanaladi. Aniqrog'i, tilning ruhiyatini, uning yashovchanligini ta'minlovchi shaxs omili bilan birgalikda, ya'ni dialektik munosabatda tahlil qilinishi zamonaviy tilshunoslikning eng muhim talablaridan biridir.

Dunyo tilshunosligida millat sifatida shakllangan har bir xalqning tabiiy va adabiy tilini, uning lahjalarini, shevalarining jozibasini sotsiolingvistik, etnolingvistik hamda lingvokulturologik yo'nalishda o'rganilishi yangi davr tilshunosligi talablariga to'liq javob beradi. Shu o'rinda tilshunoslikda muayyan bir til tizimidagi qarindosh tillar asosida yoki boshqa til tizimidagi qarindosh bo'lmagan tillar dialektining lingvokulturologik tomonlarini tadqiq etilishi ham ayni muddao. Adabiy tilning shakllanishida muayyan bir til dialektiga tegishli shevalardan so'z variantlarini tanlab olinishi eng to'g'ri yo'l hisoblanib, milliy tilning boyib borishida dialektual leksika muhim omil sanaladi. Shu bois dialektial leksikaning semantik jihatlarini tilshunoslar tomonidan doimiy ravishda qizg'in muhokamaga sabab bo'lib, til dialektlarining yuzaga kelishi, ularning xalq milliy madaniyatiga qo'shgan ulushi, qolaversa, an'anaviy hamda elektron lug'atlarda tizim asosida o'rganilishi hamon dolzarblik kasb etmoqda.

O'zbek tilshunosligida ham adabiy norma deb belgilangan millatning madaniy tilini boyishida dialektizmlarning o'rni, til dialektlarining ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-siyosiy tomondan adabiy til normasiga mos kelishi, shuningdek, adabiy til me'yorlarining norma darajasiga muvofiqligi masalasiga qaratilgan ishlarning sifat ko'lamini hamda ularning ma'no mundarijasi yanada kengaymoqda. "Bugungi globallashtirish davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga alohida ahamiyat qaratishi"¹ lozim. Har qanday millat o'z tilining milliylik va madaniylik darajasini oshirish uchun xalqning etnosini aks ettiruvchi sheva va lahjalariga yanada e'tiborliroq bo'lishi zarur. Shu bois muayyan bir xalq tilida yashab, uning milliylik xususiyatlarini ta'minlab kelayotgan dialektizmlarning millat madaniy tiliga bo'lgan o'zaro munosabatini,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli Farmoni. Manba: <http://lex.uz/docs/4561730>.

shuningdek, ularning aynan shu til rivojlanishidagi o‘rnini hamda millat qadriyati-yu uning madaniylik darajasiga qo‘shgan hissasini o‘rganish muhim masala hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4794-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi” hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida turli tizimli tillaridagi ijtimoiy dialektika va uning konseptual asoslari keng o‘rganilgan. N.A.Baskakov, O.N.Krilova, S.A.Miznikov kabi rus olimlarining olib borgan tadqiqotlarida ham dialektizmlar masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz tili dialektlarini chuqur o‘rganish dastlab XIX asrda ingliz tilshunosi A.Ellis tomonidan boshlab berilgan, keyinchalik uning bu ishini ingliz olimlari J.Raytsnoska, G.Orton, G.Shorroks, G.Kuratslar davom ettiradi. Ingliz tilidagi shevalarning leksik va fonetik xususiyatlarining farqli va o‘xshash jihatlarini N.S.Iuds, O.F.Emerson kabi tilshunoslarning tadqiqotlarida ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbek dialektologiyasining fan sifatida yuzaga kelishi va rivojlanishida V.E.Polivanov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, G‘ozi Olim Yunusov, Sh.Shoabdurahmonov, F.Abdullayev, U.Tursunov, M.Mirzayev va ular izdoshlarining xizmatlari beqiyosdir. Bu borada A.Aliyev, B.Jo‘rayev, A.Shermatov, A.Jo‘rayevlar ularning ishlarini munosib davom ettirdilar.² O‘zbek dialektologiyasining lisoniy xususiyatlari N.Rajabov, Sh.Abdurahmonov, V.Reshetov, N. Tuychiboyev hamda S.Ashurboevlarning bir qator asarlarida chuqur fikr yuritilgan.³

² Polivanov E.D. O‘zbek dialektologiyasi va o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2000; Юдахин К.К. Некоторые особенности карабулакского говора // В.В.Бартольд. – Ташкент, 1927.; Боровков И.К. Вопросы классификации узбекских говоров // Известия АН УзССР. 5. – Л., 1953.; Shoabdurahmonov Sh. Tayanch shahar shevalari leksikasidan. O‘DM, II. – Toshkent, 1961.; Abdullayev F.A. O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi. – Toshkent: Fan, 1978.; Mirzayev N. O‘zbek tilining etnografik leksikasi: Filol. fanlari nomzodi ... dis. – Toshkent, 1971., Джураев Б. Шахрисабзский говор узбекского языка. – М., 1959.; R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, M. Qurbonova, G. Voqiyeva. – Toshkent, 2005. – B. 17.

³ Раджабов Н. Карнабский говор узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1958; Решетов В. В. Узбек шевалярининг классификацияси // Узбек тили ва адабиёти, 1966; Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2013.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Tilshunoslikning dolzarb muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi turli tizimli tillar kesimida dialektal leksikaning funksional-semantik va lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tilshunoslikda dialektal leksikaning nazariy va amaliy talqini hamda soha muammolari bilan bog'liq yechimlarga munosabat bildirish;

ingliz va o'zbek tillaridagi dialektizmlarning tarkibiy ma'no mundarijasiga kiruvchi lisoniy birliklarni aniqlash;

o'rganilayotgan tillar tabiatiga xos bo'lgan *xalq tili, millat tili, rasmiy til, davlat tili, standart til, mintaq va region tili, madaniy til* kabi atamalarning konseptual asoslarini belgilash bilan birga ularning dialektik mushtarakligini aniqlash;

turli tizimli tillaridagi dialektizmlarning hududiy va mintaq lahjalari orasidagi o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash;

ingliz va o'zbek tili dialektal leksikasining milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berish;

umumadabiy til normasidagi muayyan bir so'zning dialektal leksika tarkibidagi funksional-semantik imkoniyatlarini aniqlash va ularni aniq mezonlar asosida tilning adabiy normasiga qabul qilish mezonlarini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida turli tizimli tillarining dialektal leksikasi, hududiy jihatdan farqlanuvchi sheva hamda aksentlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o'zbek tillaridagi dialektizmlarning funksional-semantik va lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tavsifiy-tasviriy, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-chog'ishtirma, modellashtirish, distributiv, kontekstual hamda statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar iborat:

har bir millatga xos adabiy til o'zining tayanch dialektiga ega ekanligi, muayyan adabiy til shakllanishida mavjud shevalarning barchasi u yoki bu darajada ishtirok etishi, shevalar adabiy til uchun asos va tayanch vazifasini bajarishi, har bir shevalar leksik, fonetik, grammatik, sintaktik-stilistik xususiyatlari bilan farqlanishi turli tizimli tillar dialektal leksikasining qiyosiy tahlilida aniqlangan;

turli tizimli tillar dialektal leksikasining funksional-semantik imkoniyatlari, dialektal leksikasining *mahalliy dialekt va ijtimoiy dialekt* turlari, ingliz va o'zbek tillar tabiatiga xos bo'lgan *xalq tili, millat tili, rasmiy til, davlat tili, standart til, mintaq va region tili, madaniy til* kabi atamalarning konseptual asoslarini belgilash bilan birga ularning dialektik mushtarakligi asoslangan;

dialektal leksika jahon tilshunosligida *dialekt, lahja, sheva, aksent, sleng, variant, urg'u* ko'rinishida mavjud bo'lib, ular umumxalq tilining o'ziga xosliklarini namoyon etishi, ingliz va o'zbek tillaridagi dialektizmlarning hududiy va mintaq lahjalari orasidagi o'zaro o'xshash va farqli jihatlari, mintaq va mahalliy dialekt tili, shuningdek, Janubiy va Sharqiy Amerika dialekti, britanacha, irlandcha va shotlanacha dialektlar funksional-semantik jihatdan dalillangan;

har bir tilda dialektizmlar qatlami milliy tilning asosini yaratishda eng muhim manba bo'lib xizmat qilishi, ularning tadrijiy takomilida milliy-madaniy xususiyatlar namoyon bo'lishi, bunday so'zlar badiiy adabiyotda sheva koloritini, aniqrog'i, biror bir xalqning o'ziga xos qadriyatlarini, madaniyatini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etishi lingvokulturologik jihatdan isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillari tabiatiga xos bo'lgan *xalq tili, millat tili, rasmiy til, davlat tili, standart til, mintaqa va region tili, madaniy til* kabi atamalarning konseptual asoslarini belgilash bilan birga ularning dialektik mushtarakligi asoslandi;

ingliz va o'zbek tillaridagi dialektizmlarning hududiy va mintaqa lahjalari orasidagi o'zaro o'xshash va farqli jihatlari aniqlandi;

ingliz va o'zbek tili dialektal leksikasining milliy-madaniy xususiyatlari tahlil qilindi;

tahlil etilayotgan tillarda so'zning dialektal leksika tarkibidagi funksional-semantik imkoniyatlari aniqlandi va ularni aniq mezonlar asosida tilning adabiy normasiga qabul qilish mezonlari ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Muammoning aniq qo'yilganligi, qo'llanilayotgan tadqiqot usullarining adekvatligi, tahlil qilingan materiallar hajmining yetarliligi, nazariy ma'lumotlar ishonchli va mavjud manbalardan, jumladan, dissertatsiyalar, avtoreferatlar, frazeologik lug'atlardan olinganligi, chiqarilgan xulosalarning qat'iyligi, muammoning tavsifiy-tasviriy, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-chog'ishtirma, modellashtirish, distributiv, kontekstual hamda statistik tahlil kabi tahlil usullari asosida yoritilganligi, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi, erishilgan natijalarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zamonaviy tilshunoslikning keng ko'lamda rivojlanib borayotgan antroposentrik paradigmasi doirasida shakllangan g'oyalarni turli tizimli tillarda dialektizmlarning funksional-semantik va lingvomadaniy xususiyatlari tadqiqiga tatbiq qilish imkoniyatida namoyon bo'ladi, shuningdek, olingan natijalar kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, tarjimashunoslik kabi fanlardan ilmiy tadqiqotlar yaratishda manba bo'lishi bilan bir qatorda, aksiologik tilshunoslik yo'nalishi nazariy rivojiga asos bo'lishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ilmiy ishdan olingan natijalar "Lingvomadaniyatshunoslik", "Leksikologiya", "Umumiy tilshunoslik", "Tarjimashunoslik", "Madaniyatlararo muloqot", "Mamlakatshunoslik", "Qiyosiy tipologiya" kabi fanlar bo'yicha o'quv qo'llanma va darsliklar, ikki tilli lug'atlar, ma'ruza matnlarini yaratishda ingliz va o'zbek tillari misolida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanish mumkinligi bilan xarakterlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turli tizimli tillarda dialektizmlarning funksional-semantik va lingvomadaniy xususiyatlari tadqiqi mavzusida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

har bir millatga xos adabiy til o'zining tayanch dialektiga ega ekanligi, muayyan adabiy til shakllanishida mavjud shevalarning barchasi u yoki bu darajada ishtirok etishi, shevalar adabiy til uchun asos va tayanch vazifasini bajarishi, har bir shevalar leksik, fonetik, grammatik, sintaktik-stilistik xususiyatlari bilan farqlanishi

haqidagi xulosalardan P3-2020042022 raqamli “Turkiy tillar lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” nomli amaliy tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 29-dekabrda 01/6-2805-sonli ma’lumotnomasi). Natijalar loyiha bo‘yicha tayyorlangan elektron resurslarning mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

turli tizimli tillar dialektal leksikasining funksional-semantik imkoniyatlari, dialektal leksikasining *mahalliy dialekt* va *ijtimoiy dialekt* turlari, ingliz va o‘zbek tillar tabiatiga xos bo‘lgan *xalq tili*, *millat tili*, *rasmiy til*, *davlat tili*, *standart til*, *mintaqa va region tili*, *madaniy til* kabi atamalarning konseptual asoslarini belgilash bilan birga ularning dialektik mushtarak ekanligi xususidagi natijalardan AL-482103231 raqamli “O‘zbek realiyalariga oid maqolalar bazasi platformasini yaratish (vikipediya elektron ensiklopediyasi mezonlari asosida)” nomli amaliy tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 29-dekabrda 01/6-2804-sonli ma’lumotnomasi). Natijalar loyiha bo‘yicha tayyorlangan elektron resurslarning mazmuni boyitilgan;

har bir tilda dialektizmlar qatlami milliy tilning asosini yaratishda eng muhim manba bo‘lib xizmat qilishi, ularning tadrijiy takomilida milliy-madaniy xususiyatlar namoyon bo‘lishi, bunday so‘zlar badiiy adabiyotda sheva koloritini, aniqrog‘i, biror bir xalqning o‘ziga xos qadriyatlarini, madaniyatini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etishiga oid xulosalardan Fz-2019062034 raqamli “Xorijiy tillarda so‘zlashuvchilar uchun o‘zbek tilini intensiv o‘rgatuvchi multimedia mahsulotlarini yaratish” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida “O‘zbekcha-inglizcha-ruscha lingvistik terminlar elektron lug‘ati”ni tuzishda foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2023-yil 26-dekabrda 24/716-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning ingliz tilidagi ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan bilim va ko‘nikmalari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma’ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan 5 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, shuningdek, 5 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 129 sahifani tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot

natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Dialektal leksikaning taraqqiyot bosqichlari**" deb nomlangan bo'lib, u uchta faslni o'z ichiga oladi. Bu fasllarda turli tizimli tillardagi dialektlarning rivojlanish bosqichlari, sabablari hamda o'rganilish darajalari yoritilgan. *Dailekt, sheva va lahjalar, standart til, umumxalq tili, mintaqqa tili, rasmiy til kabi* termin va atamalarning adabiy tildan farqli va o'xshash jihatlari xususida fikr yuritilgan. Sheva, adabiy til va boshqa dialektik terminlarga izohlar keltirilgan, ularning o'rganilishi nazariy jihatdan ochib berilgan.

Ushbu bobning "**Dialektizmlar adabiy tilning boyish manbayi sifatida**" deb nomlangan birinchi faslida millat tilining vujudga kelishida dialektal leksikaning muhim ahamiyati haqida gap boradi.

Adabiy til tushunchasi muayyan bir xalq tilining o'ziga xosligini namoyon etuvchi madaniy til hisoblanib, u umumme'yorga solingan, qoidalashtirilgan, davr nuqtayi nazaridan sayqallanib, boyib boradigan til shaklidir⁴. Biroq bu tanlov dunyo tillarining hammasiga ham to'g'ri keladigan yagona mezon emas, chunki dunyo tillari differentsiatsiyasida o'zaro farqlar mavjud. Ularning ba'zilarida adabiy til me'yori muayyan bir til lahjasining yuqori darajasiga asoslansa, ba'zilarida umumme'yor tushunchasining o'zi mavjud emas. Dunyo tillarida tilning shakllanishi, uning yashash tarzi urug', qabila va elat tili, lahja va shevalar kabi bo'lsa-da, uning asosiy mezonlari o'sha xalqning, ya'ni tilning o'ziga xosliklari bilan ma'lum ma'noda farqlanadi⁵. Millat sifatida shakllanib bo'lgan har qanday xalqning adabiy tili (adabiy til tushunchasi ko'pgina tillarda *rasmiy, standart, mintaqqa tili* kabi nomlanishlarga ega) tarixan shakllanib, tadrijiy asosda rivojlanib boradi. Muayyan bir tilning adabiy me'yori esa aynan shu tildagi ma'lum lahjalarga asoslangan bo'ladi. Lahja muayyan bir adabiy tilning fonetik, leksik va grammatik jihatdan bir-biriga yaqin shevalar yig'indisidir⁶. Lahja va uning tarkibidagi shevalar esa ma'lum bir hududda yashovchi kishilar uchun tushunarli bo'lgan nutq akti hisoblanadi⁷, Bundan tashqari, dunyo tilshunosligida faol qo'llanib kelayotgan "*dialekt*" termini lingvistik ilmda ham sheva, ham lahja terminlari o'rnida ishlatilmoqda⁸.

Darhaqiqat, shevalar har qanday millat adabiy tilining boyish manbasidir. Biroq shevaga xos so'zlarning hammasini ham adabiy til doirasida qo'llashning imkoni yo'q, chunki bunda bir narsa yoki biror tushuncha bir necha nomlanishlarga sabab bo'lishi mumkin. Bu esa tilni ixchamlashtirish, aniqlashtirish o'rniga uni yanada murakkablashtirishga sabab bo'lishi mumkin. Buning yana boshqa sababi xalq dialektidagi ko'p so'zlarning ma'no tashish imkoniyati bugungi kunda nisbatan eskirgan, aniqrog'i, ularning zamonaviyligi biroz yo'qolgan va bugungacha shakllanib bo'lgan umumxalq tilidan ancha uzoqlashganligidir. Aslida, shu xalqning tarixi, uning kelib chiqishi, milliy qadriyatlar va urf-odatlar aks etgan folklor tilidan, ma'naviy meroslarimizda aks etgan o'zligimizdan uzoqlashmaslik zarur.

Ona tili deganda adabiy tilni emas, dialektizmlar tarkibidagi shevalarni tushunish haqiqatga yaqindir, shuning uchun ham uni asrab-avaylash, qadrlash

⁴ Normurodov R. O'zbek tilida ikkilamchi nominatsiya. – Toshkent, 2010. – B.45-48.

⁵ Mamatov A. O'zbek tili leksikografiyasidan materiallar. – Toshkent, 2009. – B. 9-10.

⁶ Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2021.

⁷ Бегматов Э. Хозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 200.

⁸ Farmonov I. O'zbek tili O'sh-O'zgan dialektining ba'zi leksik xususiyatlari. – Toshkent, 1983.

zarur. Har bir madaniyatli va ziyoli shaxs ommaviy va rasmiy doiralarda o‘zbek adabiy tilida muomala qila olishi shart, lekin bu o‘z shevasini unutishi kerak degan ma’noni mutlaqo anglatmaydi. Har bir inson o‘z fikrini erkin ifodalashda o‘z shevasi yoki o‘zlashtirgan shevasiga beixtiyor murojaat qiladi. Millatning shu kungacha shakllanib bo‘lgan tilida aynan milliy o‘zlikni ifodalovchi zarur so‘z va tushunchalar bo‘la turib, uning o‘rnida har qanday ajnabiy so‘zdan yoki me’yorlashmagan shevaga xos so‘zlardan foydalanish ham maqsadga muvofiq bo‘lavermaydi, lekin ehtiyoj sezilganda va zarur hollarda ularga nisbatan to‘g‘ri yondashish maqsadga muvofiqdir. Bu o‘rinda gap zarur tushunchalarning ifodasi bo‘lgan shevaga xos so‘zlarni adabiy tilga olib kirish, ya’ni o‘z ichki imkoniyatlarimiz asosida adabiy tilni boyitishga xizmat qilishi to‘g‘risida bormoqda. Ayniqsa, ba’zi xalq shevalarida shunday so‘zlar borki, ular adabiy tildagi bo‘shliqni to‘ldirishga qodir. Ilmiy adabiyotlarda tilning leksik tizimida biror noodatiy tushunchani anglatish uchun muayyan bir til zaxirasida so‘zning yetishmasligi ehtiyoji seziladi. Bunday bo‘shliq fanda “lakuna” termini bilan tushuntiriladi. Bu termin lotincha, fransuzcha “bo‘shliq, tushirib qoldirilgan, ayirib qo‘yilgan” degan ma’nolarni anglatadi⁹.

Tilshunos olim Sh. Shoabdurahmonov o‘zbek adabiy tili va xalq shevalari munosabatini yoritishda (“lakuna” terminidan foydalanmagan holda) adabiy tilda o‘z o‘rnini topishi kerak bo‘lgan bir qator so‘zlarni keltiradi:

Hökki	Isiryalig	Zirbäk
Xorazm shevalarida muzlagan daryo, anhordan suv olish uchun o‘yib qo‘yilgan joyi bildiradi.	Andijon shevasida quloqning zirak taqilishi uchun teshib qo‘yiladigan joyini anglatadi.	Farg‘ona vodiysi shevalarida osh (palov) uchun qozonga sabzi-piyoz bosilgan va bir qaynab chiqqan holatini bildiradi.

O‘zbek tilida og‘zaki talaffuz grammatik qoidaga bo‘ysindirilgan, aslida grammatik qoidalar og‘zaki talaffuzga moslashtirilishi kerak edi. Bu borada tilshunos O‘. Lafasovning kuzatishlari alohida ahamiyatli. Uning fikricha, “yozma shakldagi sun‘iy imlo xatolarga to‘liq barham bera olmaslik aslida grammatik qoidalar og‘zaki talaffuzga moslashmaganligining oqibatidir”¹⁰.

Izlanishlardan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, turli tizimli tillar doirasida, masalan, ingliz tilining adabiy me’yorini yaratishda shevaga xos birliklarga tayanilganligi aniqlandi. Aniqrog‘i, ular bunday masalaga o‘zlariga xos til tabiatidan, ijtimoiy va siyosiy qarashlaridan kelib chiqqan holda yondashishgan, ya’ni inglizlar tilida adabiy til me’yori ishlab chiqilmagan. Chunki ularning adabiy til me’yori mintaq, hudud, regionlar ko‘rinishida ishlab chiqilgan. Ingliz tili hudud shevalari nihoyatda ko‘p, masalan, *standart va mintaq tili, variant, aksent, shimoliy va sharqiy, janubiy va g‘arbiy hudud ingliz tillari* sifatida faol bo‘lib, ular inglizlashgan mamlakatlarning asosiy millat tili ko‘rinishida xizmat qilib kelmoqda¹¹.

Tilshunoslarning fikricha, inglizlar keyingi paytga kelib dialekt tushunchasini yo‘qotish arafasiga kelib qoldi¹², chunki bu tilning areal xaritasi noodatiy talablarga ko‘ra kengaydi, ingliz tilida so‘zlovchi xalqlar ichida o‘zaro til tanlovlari yuzaga

⁹ Shoabdurahmonov Sh. Tayanch shahar shevalari leksikasidan. O‘DM, II. – Toshkent, 1961.

¹⁰ Lafasov O‘. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2021. – B.47-48.

¹¹ Apton C., Widdowson J.D. An Atlas of English Dialects. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – B.193.

¹² Trudgill P. Dialects. – Routledge, 1994. – P.70.

kela boshladi, aniqrog‘i, ushbu tilning variantlari ko‘payib, tillar ichida til ayirboshlanishi yuzaga keldi¹³. To‘g‘rirog‘i, bu jarayonni aynan ushbu tilning mintaqa dialektlari va variantlari o‘rtasidagi o‘zaro to‘qnashuvi deb nomlasak, to‘g‘rirog‘ bo‘ladi. Bundan shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, dialekt tushunchasini dunyo tilshunoslari ikki xil usulda tushuntirishga harakat qilishmoqda. Birinchisi – so‘zlashuvchilarning ma‘lum bir guruhiga xos bo‘lgan tildan foydalanish imkoniyati bo‘lsa, ikkinchisi esa uning mintaqaviy nutq modellariga xos bo‘lishidir¹⁴. Bundan tashqari, dialektni boshqa omillar asosida, ya‘ni ijtimoiy tabaqalar bilan ham aniqlash mumkin bo‘ladi. Masalan, muayyan ijtimoiy sinf bilan bog‘liq bo‘lgan dialektni *sotsiolekt* deb atash mumkin bo‘lsa, mintaqaviy lahjani *regiolekt* yoki *topolekt* deb atash mumkin¹⁵.

Bunday imkoniyatlar (agar aytish joiz bo‘lsa) ko‘proq Yevropa tillarida yaxshi yoritilgan. Demak, dialekt tushunchasining ikkinchi usuli ijtimoiy jihatdan mintaqaviy yoki milliy standart tilga bo‘ysunadigan tilni anglatadi. Bu jarayon ham ko‘pincha tarixiy jihatdan milliy tilga bog‘liq bo‘ladi. Tarixiy dialektlar inglizlar hayotida asosan qishloq jamoalarida, aniqrog‘i, keksalar nutqida ko‘proq saqlanib qolgan. Hozirda ularning chegaralari avvalgiga qaraganda ancha barqaror bo‘lib qoldi, chunki ishchi oilalarning migratsiyasi va qishloq hayotiga shahar hayotining ta‘siri ortishi natijasida o‘ziga xos xususiyatlari yo‘qoldi. Aytishlaricha, inglizlarda maktablarda o‘qitiladigan *standart ingliz tili* radio, televideniya va kinolardagina saqlanib qolgan. Britaniyalik tilshunoslar *dialektni* (ya‘ni ularning bugungi adabiylashgan standart tilini) *aksentdan* (haqiqiy jonli tili – shevasidan) farqlashga harakat qilmoqdalar¹⁶.

Dialektizmlarning tadqiqi masalasida o‘zbek tilshunosligida erishilgan yutuqlar ham tahsinga loyiq¹⁷, biroq dialektal birliklar mundarijasiga bevosita aloqador bo‘lgan ba‘zi atamalar borki, ular hanuz bahslarga sabab bo‘lmoqda.

Dialektologlar ikki turdagi dialekt haqida fikr yuritishadi, ya‘ni *mahalliy dialektlar va ijtimoiy dialektlar*.

Mahalliy dialekt umumxalq (milliy) tilining muayyan hududga oid ko‘rinishi, o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishidir.

¹³ Adams D. An Introduction to Modern English Dialects. – London: Oxford, 1973.

¹⁴ Abdullayev F. Xorazm shevalari. – Toshkent: O‘zFAN, 1961; Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978; Antal L. Questions of varieties. – The Hague, 1963.

¹⁵ Shoabdurahmonov Sh. Tayanch shahar shevalari leksikasidan. O‘DM, II. – Toshkent, 1961.

¹⁶ Wells J.C. Accents of English. – Cambridge University Press, 1983; Wakelin Martyn Francis. First published. Discovering English Dialects. – Oxford: Shire Publications, 2008.

¹⁷ Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. I. Луғат. II. Хоразм шевалари таснифи. – Тошкент: Фан, 1961; Ўша муаллиф. Фонетика Хорезмских говоров. – Тошкент: Фан, 1967; Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1962. – Б.370; Иброҳимов С. Ўзбек тилининг Андижон шеvasи. – Тошкент: Фан, 1967; Мирзаев М. Ўзбек тилининг Бухоро гурӯҳи шевалари. – Тошкент: Фан, 1969; Решетов В.В. Кураминские говоры Ташкентской области: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Тошкент, 1952; Кураминские говоры Ташкентской области. Фонетическая и морфологическая система. – Тошкент, 1952; Афзалов Ш. Ташкентский говор узбекского языка: Автореф. дис.... канд. филол. наук. – Тошкент, 1953; Гулямов Я.Г. Морфология Ташкентского говора: Автореф. дис.... канд. филол. наук. – М., 1954; Гулямов Х. Джизакский говор узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1954; Эгамов В. Галляаральский говор узбекского языка Самаркандской области: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1954; Мирсагатов Т. Каршинский говор узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1954; Данияров Х. Бахмальский говор узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1955; Абдуллаев Ф. Кипчакский говор узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1957; Фармонов И. Ўзбек тилининг Ўш шеvasи. – Тошкент, 1956; Раджабов Н. Карнабский говор узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1958; Джураев Б. Шахрисабзский говор узбекского языка. – М., 1959; Абдурахмонов Д., Содиков Т., Носиров Ш., Турабова М. Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1991.

Ijtimoiy dialekt mahalliy sheva, dialekt va lahjalardan farq qilgani holda, nutqiy vaziyat maqsadi (intensiyasi)dan kelib chiqib, muayyan guruhdagi shaxslarning umumxalq tilidagi soʻzlarga oʻzgacha maʼno berishlari yoki muayyan soha – kasb-hunar leksikasi va terminologiyasidan faqat shu soha kishilarining oʻzlarigina foydalanishlari asosida vujudga keladi¹⁸.

Koʻrinadiki, bunda ijtimoiy leksika ijtimoiy dialekt termini bilan nomlanmoqda. Bizningcha, bu mulohazali fikr. Chunki ijtimoiy leksika biror sheva yoki dialekt xususiyatiga teng kelmaydi. Balki ijtimoiy leksikadagi leksik chegaralanganlik mahalliy dialektlar kesimida oʻrganilishiga sabab boʻlgandir. Nima boʻlganda ham, bizningcha, ijtimoiy leksika dialektologiya sohasining oʻrganish obyekti emas. Bundan tashqari, ijtimoiy dialektda oʻziga xos fonetik va grammatik qonuniyatlar boʻlmaydi, biroq ayrim leksik xususiyatlar boʻlishi mumkin¹⁹.

Taʼkidlash kerakki, ijtimoiy dialektal leksika oʻzbek tilshunosligida juda yaxshi oʻrganilgan²⁰. Ijtimoiy dialekt tushunchasi ostidagi *jargon*, *argo*, *kasb-hunar doirasidagi* soʻzlar kabi birliklar ham oʻz ilmiy talqiniga ega, ammo jahon tillarining (tilshunosligining) koʻpida, jumladan, biz tadqiq qilayotgan inglizlarning tilida ham ijtimoiy leksika dialektologiya obyekti sifatida koʻrsatilgan²¹. Birgina ingliz tilining oʻzida adabiy tilga tenglashtiriladigan bir qancha standart va mintaqa tillari borki, ularning birida ijtimoiy leksika sifatida qoʻllaniladigan jargon ikkinchisi uchun standart hisoblanadi. Misol uchun, “*boy or man*”soʻzi Britaniya ingliz tilida “*bloke*”, Amerikada “*dude*”, amerika dollari Am.EDA “*bucks*”, 10 dollar “*sawbucks*”, Britaniya yevrosi Br.E “*quid*”, pul Am.E “*cheese/cake*”, Br.E “*dosh, green*”, yomon xarid yoki yomon inson Am.E “*lemon*”, politsiya Am.E “*popo*”, qoʻl mehnati koʻp talab qilinmaydigan koʻp maosh oladigan kasblar, yaʼni hisobchilar, bank xodimlari, advokatlar Am.E “*white-collar*” deb yuritiladi.

Bobning “**Turli tizimli tillar dialektal leksikasining taraqqiyot bosqichlari**” deb nomlangan ikkinchi faslida dialektizmlarning tadrijiy jihatdan rivojlanishi oʻrganilgan.

Oʻzbek, aniqrogʻi, turkiy xalqlar etnosini turkiy va oʻzbek tilining ilk yozma yodgorliklaridan biri boʻlgan “Devonu lugʻatit-turk” asarisiz tahlil qilish qiyin kechadi. Demak, turkologiyada shevalarni oʻrganish XI asrda Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻatit-turk” asaridan boshlangan.

Mahmud Koshgʻariyning tilshunoslik tarixida beqiyos oʻrni bor. U turkiy qabilalarni birma-bir kezib, ularning tilidagi farqli xususiyatlarni aniqladi, til xususiyatlariga koʻra turkiy tillarni guruhlarga tasniflash imkoniyatiga ega boʻldi. Mahmud Koshgʻariyning oʻzi bu haqda shunday deydi: “Puxta qoʻllanma boʻlsin deb, har bir qabilaning oʻziga xos xususiyatlariga qiyosiy qoidalar tuzdim. Bu masalaga qiziqqan mutaxassislariga asarni qoʻllanma qildim”.

Mahmud Koshgʻariy oʻz oldiga qoʻygan ulkan vazifani aʼlo darajada bajardi. Barcha sathlar boʻyicha turkiy tillarni oʻzaro qiyoslab, umumiy va farqli jihatlarini ajrata oldi. Turkiy tillarni farqli belgilariga koʻra dastlab ikki guruhga ajratdi: *turklar*

¹⁸ Xasan ato Abdushin. Turk qavmlari tarixi. – Toshkent, 1995.

¹⁹ Ashirboyev S. Oʻzbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2011, 2013.

²⁰ Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. Oʻzbek dialektologiyasi. – Toshkent, 1978; Ashirboyev S. Oʻzbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2013.

²¹ Haugen E. From Idiolect to Language. Studies by Einar Haugen Presented on the Occasion of his 65th Birthday. – The Hague-Paris, 1972; Trudgill P. On Dialect: Social and Geographical Perspectives. – New York, 1983.

(*chigil, qoshg'ar, arg'u, uyg'ur*), *o'g'uz va qipchoq qabilalari* tillari. Koshg'ariy turkiy tillarni lingvistik jihatdan ham farqlashga harakat qildi. Jumladan, fonetik jihatdan so'z boshidagi "y" tovushining o'g'uzlarda va qipchoqlarda "j" bilan almashinuvi aytiladi.

Ingliz tilining asosiy mahalliy lahjalari esa tilshunoslar tomonidan uchta umumiy toifaga bo'linadi: Britaniya orollari dialektlari, Shimoliy Amerika va Avstraliya dialektlari²². Demak, ingliz tilida dialektlar nafaqat joy, balki muayyan ijtimoiy guruhlar bilan ham bog'lanishi mumkin. Ta'kidlash joizki, ma'lum bir ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatda standart ingliz tili deb hisoblanadigan til shakli mavjud. Eng qizig'i, turli mamlakatlarning standart ingliz tili bir-biridan farq qiladi va bu ham o'z o'rnida shu tilning dialekti hisoblanishi mumkin. Standart ingliz tilining yuzaga kelishi ko'pincha jamiyatning ma'lumotli, ya'ni ziyoli qatlamlari hamda rasmiy registrlari bilan bog'liq masaladir.

Avstraliya, Kanada, Irlandiya va Yangi Zelandiya kabi ingliz tilida so'zlashadigan davlatlarda britaniya va amerikancha ingliz tillari o'rnatilgan ingliz tili uchun mos qoidalar normalari hisoblanadi²³. Ko'pgina ingliz tillari olamida keng tarqalgan britanacha ingliz tilidan foydalanadilar, biroq shunga qaramay, aksariyat ingliz tilli mamlakatlarda ingliz tilining amerikancha varianti ta'siri sezilib turadi. Ushbu tillar ta'sirida bo'lgan mustamlaka mamlakatlarning aksariyati britanacha yoki amerikancha ingliz tili ta'sirini saqlab qolgan holda, o'zlarining noyob dialektlarini (bunda dialekt termini sheva sifatida tushunilmasligi kerak) ishlab chiqqanlar, jumladan, hind ingliz tilisi va filippin ingliz tillari kabi²⁴.

Bobning "**Standartlashtirilgan tillarining areal tahlili**" deb nomlangan uchinchi faslida ingliz dialektal leksikasi hududiy jihatdan tahlil qilingan.

Ingliz tilining dunyo tilaridan farqli jihati shundaki, ulardagi ba'zi faol shevalar, aniqrog'i, ularning nufuzga ega bo'lgan mahalliy lahjalari dunyoning ko'p qismida *milliy standart til* sifatida qabul qilingan. Bu tillar asosan inglizlarning janubiy lahjalari va O'rta G'arbiy amerikaliklarning tili hisoblanadi. Bu tillarni ba'zi mahalliy xalq vakillari BBC²⁵ (yoki Qirolicha) ingliz deb ham atashadi va uni "adabiy talaffuzga" eng yaqin til varianti deb tan olishadi. Qo'shma Shtatlar va Kanadaning ko'p qismida tarqalgan umumiy amerikaliklarning ikkinchi lahjasi odatda Amerika qit'alari va Amerika Qo'shma Shtatlari bilan yaqin aloqada bo'lgan hududlar (masalan, Filippin) uchun namuna hisoblanadi. Umumiy avstraliyaliklar tili esa shu xalq uchun *standart aksent* bo'lib xizmat qiladi. Qo'shni Yangi Zelandiya va Janubiy Afrika ingliz tilisi esa mahalliy tillarning ta'siriga uchragan.

Bu asosiy lahjalardan tashqari, ingliz tilining ko'plab boshqa hudud va aksent shevalari bo'lib, ular ko'p hollarda ingliz tilidagi *Kokkney, Skouse va Geordiye* kabi bir nechta til turlarini o'z ichiga oladi; Kanada ingliz tilisi tarkibida Nyufaundlend ingliz tilisi va afro-amerikaliklarning og'zaki ingliz tilisi ("Ebonics") va Amerika inglizlari ichida Janubiy Amerikadagi inglizlar tili va hakozi.

Standart ingliz tili. Buyuk Britaniyaning maktab va universitetlarida o'qitiladigan, matbuot, radio va televideniya qo'llaniladigan, ziyoli qatlam

²² Маковский М.М. Английские социальные диалекты. – М., 1982.

²³ Adams D. An Introduction to Modern English Dialects. – London: Oxford; Altendorf-Ulrike, 2003; Estuary English: Levelling at the Interface of RP and South-eastern British English. – Tübingen: Gunter Narr Verlag.

²⁴ Bauer L. An Introduction to International Varieties of English. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2002.

²⁵ Balogné Bérces Katalin. Beginner's english dialectology: an introduction to the accents and dialects of English. Budapest 2008

kishilari gaplashadigan rasmiy tildir. Uning lug‘ati lahjaga oid so‘zlar yoki dialektizmlardan farq qiladi. Mahalliy lahjalar ingliz tilining ba‘zi tumanlariga oid va me‘yorlashtirilmagan, adabiy shaklga ega bo‘lmagan turlaridir. Adabiy shaklga ega bo‘lgan hududiy turlarga variantlar deyiladi²⁶.

Dastlabki davrda inglizlarning vazifasi Amerika qit‘asida uchraydigan joylar, hayvonlar, o‘simliklar, urf-odatlarining nomlarini topish edi. Ular mahalliy aholi – hindular gaplashadigan tillardan ba‘zi nomlarni oldilar, masalan: “*chipmuck*” – amerikalik sinkapi, “*igloo*” – gumbaz shaklidagi kulba, “*skunk*” – qora va oq chizikli hayvon, “*squaw*” – hind ayoli, “*wigwam*” – terilar va qobiqdan qilingan amerika hind chodirlari va boshqalar.

Inglizlardan tashqari, Amerikaga boshqa mamlakatlardan kelgan ko‘chmanchilar va ingliz tilida so‘zlashuvchilar ular bilan aralashib, o‘z tillaridan ba‘zi so‘zlarni olishdi, masalan, fransuz tilidan “*bureau*” – yozuv stoli, “*cache*” – xazina uchun joy, “*depot*” – do‘kon-uy, “*pumpkin*” – qovoq.

Ingliz tilining Amerika varianti ikkinchi davri XIX asrdan boshlandi. Muhojirlar Yevropadan Amerikaga kelishni davom ettirdilar. Huddi shu mamlakatdan muhojirlarning katta guruhlarini Amerikaga kelganlarida, ularning ba‘zi so‘zlari ingliz tiliga shartli olingan. Italiyaliklar o‘zlari bilan oziq-ovqatga doir so‘zlarni olib kelishdi, u jamiyatga keng tarqaldi va ingliz tiliga “*pizza*”, “*spaghetti*” kabi so‘zlar kirib keldi. Shuningdek, nemis tilida so‘zlashuvchilar ko‘pligidan ingliz tiliga quyidagi so‘zlar o‘zlashgan: “*delicatessen*”, “*lager*”, “*hamburger*”, “*noodle*”, “*schnitzel*” va boshqalar.

Old va orqa qo‘shimchalarni ishlatishda Br.E va Am.E o‘rtasida ba‘zi farqlar bor, masalan, sanalar, haftaning kunlarini oldindan belgilashda britanacha ingliz tilida *on* predlogini talab qiladi – *I start my holiday on Friday*, ingliz tilining Amerika variantida hech qanday predlog yo‘q – *I start my vacation Friday*. Br.Eda “*at home*” deyilsa, Am.Eda – “*home*” so‘zining o‘zi ishlatiladi. Br.Eda “*a quarter to five*”, Am.Eda “*a quarter of five*” bo‘ladi.

Xalqaro til bo‘lgan ingliz tili filologlari va leksikograflarining hududiy farqlari haqida gapirganda, odatda, ingliz tilining turli xil variantlarida bir xil obyektlar uchun turli so‘zlar ishlatilganligi qayd qilinadi:

BE	AE
<i>flat</i>	<i>apartment</i>
<i>underground</i>	<i>subway</i>
<i>lorry</i>	<i>truck</i>
<i>pavement</i>	<i>sidewalk</i>
<i>post</i>	<i>mail</i>
<i>tin-opener</i>	<i>can-opener</i>
<i>government</i>	<i>administration</i>
<i>Leader</i>	<i>editorial</i>
<i>teaching staff</i>	<i>faculty</i>
<i>lift</i>	<i>elevator</i>

²⁶ Trudgill Peter and Chambers, Jack K. Dialects of English: Studies in Grammatical Variation. – London: Longman, 1991.

Bundan xulosa qilish mumkinki, Am.E dagi ko‘p so‘zlar Br.Edagi so‘zlarning ekvivalentidir, ammo masala bu qadar oddiy emas. Ba‘zan bu juftliklar bir-biridan farqlanadigan holatlar ham uchrab turadi.

Tadqiqot materiallari bizni ingliz tilidagi variantining kelib chiqishi ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarda sodir bo‘lgan tarixiy jarayonlar va voqealar bilan bog‘liq, degan xulosaga olib keladi. Agar bugun aynan shu hududlarda mahalliy til tafovutlari sodir bo‘layotgan bo‘lsa, ular oldingi davrlardagi (Shimolda) Viking hukmronligi ta‘siridan kelib chiqqan bo‘ladi va ularni yanada aniqlashtirish ta‘lim va fanning rivojlanishiga xizmat qiladi. Bizning taxminimizcha, bunday mintaqaviy tafovutlar ko‘p jihatdan Angliya va Irlandiyadan kolonistlarini qabul qiluvchi mamlakatlarning milliy voqeligiga bog‘liq bo‘ladi.

Tadqiqot ishining ikkinchi bobi “**Turli tizimli tillar dialektal leksikasining funksional-semantik imkoniyatlari**” deb nomlanib, bob uch fasldan tashkil topgan. Bobning birinchi fasli “**Dialektizmlar adabiy tilning funksional-semantik imkoniyati va ularning vazifaviy tur sifatida guruhlanishi**” deb nomlangan bo‘lib, ushbu fasl tadqiqi dialektizmlarning funksional-semantik imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Ish mohiyatida so‘zning funksional-semantik imkoniyati deyilganda nimani tushunish lozimligi, dialektizmlardagi funksional-semantik imkoniyat qanday yuz berishi mumkinligi, ular sinonimlardan nimasi bilan farqlanishi kabi savollarga oydinlik kiritish asosiy maqsad qilib olingan.

Ma‘lumki, o‘zbek tili dialekt va shevalari uzoq o‘tmishda o‘zbek xalqining tarixiy sharoiti bilan bog‘liq ravishda o‘zaro mushtaraklik kasb etib, yagona o‘zbek umumxalq tili bo‘lib shakllangan va uning ajralmas qismiga, quyi shakliga, aylanib qolgan, lekin o‘zbek tilining lahjalari va ayrim shevalari orasidagi ko‘pgina farqlar bugungi kungacha ham saqlanib qolmoqda. Masalan, o‘zbek tilining qipchoq shevalarida singarmonizm xususiyatining to‘liq saqlanib qolganligi, 9 ta unli fonemaning mavjudligi, so‘z boshida, ko‘pincha, **y** tovushi o‘rnida **j** tovushining qo‘llanilishi, **f** tovushining deyarli qo‘llanmasligi, **x** tovushining ko‘pchilik shevalarda **q** tarzida qo‘llanilishi, so‘z o‘rtasida va oxiridagi **g**‘ tovushi, so‘z oxirida kelgan **g**‘, **q**, **k** tovushlarining tushib qolishi, ba‘zan esa **o** tovushining **a** tarzida aytilishi (**jay** – jay solmoq, **chay** – chay solmoq, **chach** – chach olmoq kabi), ba‘zan **l** tovushining so‘z o‘rtasida tushib qolishi (**bo‘sa**, **kesa**, **osa**), boshqa hollarda **o** yoki **a** tovushining **i** tovushi bilan almashinishi (masalan, **keldimi** – **keldima** kabi) yana **e** tovushining **o** ga o‘tishi (**tapa** – **toba**, **bedana** – **bodana**, **belanchak** – **bolanchak**) kabi.

Yuqoridagi ma‘lumotlarga tayangan holda shuni aytish mumkinki, hozirgi amalda bo‘lgan o‘zbek adabiy tili, o‘zini shu adabiy tilning shakllanishiga xizmat qilishda manba bo‘ladigan o‘zbek shevalari bilan uzviy bog‘liq holda kechadi. Shevalardagi turli xil qonuniyatlar, o‘zgarishlar va o‘ziga xosliklar mutaxassislar tomonidan ishlov berilgan holda adabiy tilga ko‘chiriladi. Bundan kelib chiqadiki, adabiy tildagi xususiyatlar shevalar ham tarkibida mavjud bo‘ladi. Farqi shundaki, shevalardagi qonuniyatlar ibtidoiyroq xarakter kasb etadi, kichik doirada amalda bo‘ladi. Demak, adabiy tilda mavjud bo‘lgan xususiyatlar va hodisalar²⁷, shevalarimizdagi xususiyat va hodisalardan farq qiladi. Ularning asl pozitsiyasi, ma‘no ma‘zmuni va shakllanishi bir xil asosga borib taqaladi²⁸.

²⁷ Ishayev A. Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalari. –Toshkent: Fan, 1977. –B. 45.

²⁸ Ishayev A. Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalari. – Toshkent: Fan, 1977. –B. 46.

Dialektizmlar adabiy tilning funksional-semantik imkoniyati sifatida dialektik sathda yashaydi, aniqrog‘i, ular adabiy me‘yor uchun ma‘lum bir so‘zning funksional-semantik imkoniyatidir. Masalan, adabiy til me‘yoridagi **ona** so‘zining qipchoqdagi variantlari, to‘g‘rirog‘i, ona so‘zining funksional-semantik imkoniyati – *ena, yina, una*; o‘g‘izdagi variant *opa*; qarluqdagi variant *esa aya*.

Kelyapti hozirgi zamon fe‘lining shevalardagi morfologik belgisi *-votti, -utti, -opti* variantlari yuqoridagi morfologik me‘yorning funksional-semantik vazifasi uchun xizmat qiladi, biroq shu narsani ta‘kidlash joizki, keyingi paytlarda dialektizmlardan adabiy til me‘yoriga so‘zlar olinishida o‘zbiarmonlik va umumme‘yorni mensimaslik, tushunmaslik, tushunsa ham, “aqlilik” qiluvchilar nihoyatda ko‘payib ketdi. Adabiy tildagi *ota* so‘zi o‘rnida uning lahjalar tarkibidagi – **ada, dada, doda** kabi ko‘rinishdagi funksional-semantik imkoniyatlarning o‘rinsiz qo‘llanishi shular jumlasidandir. Bugun bu kabi misollarni tilda ko‘plab uchratish mumkin. Aynan ushbu nojoiz harakatlar tilning qonun-qoidalariga zid bo‘lib, umumme‘yorni buzishga olib boradi. Shusiz ham tilimizning rivoji himoyaga muhtojlik sezmoqda.

Bizningcha, dialektlardagi muhim va zaruriy so‘zlarni adabiy lashtirish borasidagi izlanishlarini markazlashtirish va tizimlashtirish, boshqarish va tartibga solish ham bu boradagi ishlarning natijadorligini ta‘minlaydi.

Ingliz tili yuzasidan yuqoridagi tahlilni amalga oshirishning ilojisi bo‘lmadi, chunki ingliz dialektlaridagi har bir so‘zning ma‘nosi ma‘lum bir tilning (ingliz tilidagi dialektizmlar, mintaqaviy, regional, hududiy va standart tillar ko‘rinishida yashaydi) umumiy til me‘yoriga aylanib bo‘lganligidir. Shu jihatdan ingliz dialektlarida muayyan bir so‘zning funksional-semantik imkoniyatga aylanishi mumkinligiga asos bera olmadik. Fikrimizcha, ingliz tilining bu jihati aynan shu tilning o‘ziga xosligini ta‘minlaydi.

Ushbu bobning ikkinchi fasli **“Xalqaro til dialektal leksikasining mintaqaviy va regional tadqiqi”** deb nomlanib, bunda dialektal leksikaning mintaqaviy tadqiqida ingliz tilidagi shevalar va lahjalarning hududiy jihatdan shakllanishi o‘rtasidagi farq va o‘xshashliklar, ularning semantik tahliliga e‘tibor qaratilgan.

O‘zining uzoq tarixi davomida ingliz tili ikkita standart tilni, ya‘ni ikkita asosiy til shaklini ishlab chiqdi, ularning ikkalasi ham o‘z mamlakatlari va jamiyatlari tomonidan bir xilda qabul qilindi. Ulardan biri Angliyadagi standart ingliz tili (Uels), ikkinchisi esa AQShdagi standart amerikacha ingliz tili.

Angliya standarti yoki mos yozuvlar aksenti an‘anaviy ravishda **Received Pronunciation** (“qabul qilingan” degan ma‘noni anglatadi) deb ataladi, RP deb qisqartiriladi, AQShning standartlashitirilgan varianti esa **General American** yoki qisqacha GA deb ataladi.

Shuni ta‘kidlash kerakki, yuqoridagi tillarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ularning grammatikasi va lug‘atlari ham farqlanadi, aksent atamasi esa faqat talaffuzdagi farqlarga ishora qiladi. Shunga ko‘ra, standart **Britaniyaning standart ingliz tili – dialekt, RP – aksent, Standart amerikacha ingliz tili – bu dialekt, GAni aksent deb e‘tirof etish mumkin.**

Ingliz tili dialektal leksikasining regional tadqiqi dialektal leksikaning tarixi va uning bitmas-tuganmas zahirasiga ishora qiladi. Dialekt atamasining o‘zi esa ham sheva, ham til (so‘z) talaffuzidagi farqlanishni tushuntiradi. Demak, dialekt

terminining ma'nosi – bir kishi yoki bir guruh so'zlovchilar tomonidan qo'llaniladigan so'zlar va sintaktik tuzilmalar majmuidir. Ba'zan dialekt tushunchasini biz keng ma'noda aksent deb ham tushunamiz. Biroq, ingliz tilida aksent talaffuzni tasvirlash uchun qo'llaniladigan so'z bo'lib, ham talaffuz, ham dialekt farqligini ko'rsatadi. Misol uchun, agar kimdir Shimoliy G'arbdagi Scouse yoki Midlandsdagi Qora mamlakat kabi ingliz tilining mintaqaviy lahjasida gapirsa, uning talaffuzi ham o'sha hududga xos bo'ladi. Agar siz Kornuolldagi Land's Enddan shimolga, Shotlandiyaning eng shimolidagi Jon O'Groatsgacha boradigan bo'lsangiz, ingliz tilining turli aksent va lahjalarini eshitasiz - shimoliy sharqda Geordie, janubi-g'arbiy qismida G'arbiy mamlakatdagi kabi. Bu dialekt kontinumi yoki o'zaro tushunarliklik dialektal leksika zanjiri sifatida bog'langan; ya'ni bir sheva va aksentdan ikkinchisiga o'tishda uzilish bo'lmaydi, aniqrog'i, geografik jihatdan qo'shni dialekt so'zlashuvchilari bir-birini tushuna oladilar. Biroq, shuni ham ta'kidlash kerakki, geografik ajratish qanchalik katta bo'lsa, dialekt farqlarini tushunish ham qiyinroq kechadi.²⁹

Ingliz tilida aksent va dialektlarga nisbatan sof lingvistik o'lchovdan tashqari, ijtimoiy jihat ham mavjud. Bu haqda Chambers va Trudgill til aksentlarini quyidagicha ko'rib chiqilishni ta'kidlashadi.³⁰

Birinchidan, standart, past maqomli, ko'pincha qishloq xo'jaligi xodimlari, odatda dehqonlar, ishchilar sinfi yoki obro'ga ega bo'lmagan boshqa guruhlar bilan bog'liqligi sabab bo'lsa, **ikkinchidan**, ko'pincha tilning boshqa shakllariga, xususan, yozma shaklga ega bo'lmagan dunyoning alohida qismlarida gapiriladigan tillarga ham bog'liqligidir. **Uchinchidan** esa dialektlar ko'pincha me'yordan qandaydir og'ishi – tilning to'g'ri yoki standart shaklining aberratsiyasi sifatida qabul qilinishidir.

Trudgill va Chambers, masalan, janubiy-g'arbiy Angliyadagi Devon va Kornuoll kabi qishloq aksenti bilan gaplashadigan odamlar aqli zaif, ammo ishonuvchan, Londondagi Kokni kabi shaharliklar bilan gaplashadigan odamlar esa tezkorlikni, aniqlikni, faollikni xush ko'ruvchilar ekanligini aniqladilar. Bular ancha aqli, boshqalar kabi ishonuvchan emas. Haqiqatdan ham standart ingliz tilida so'zlashuvchilar talaffuz aksentsi bilan boshqa lahjalarda so'zlashuvchilarga qaraganda aqlliroq va axloqiy va ijtimoiy jihatdan ham ustunroq deb hisoblanadilar. Standart yoki sof tilga bo'lgan bunday munosabatni ingliz tilshunoslari, ya'ni tildagi variatsiyani tavsiflashda turlicha atamalardan (regional, sotsial va kontekstual) foydalanishni ma'qul ko'rishgan. Bunday nomlash dialekt va aksent atamalar bilan bog'liq bo'lib, bu atamalar yoki nomlanishlar tilshunoslikda hech qanday salbiy ma'noga ega emas, balki tilning amaliy ilmi hisoblangan nutq madaniyati g'oyasiga to'g'ri keladi. Demak, standart til tushunchasi til tavsiflarini haqiqiy va to'g'ri tushunishga yordam beradi va aynan dialekt, aksent kabi terminlar ma'nosi ham shu til mavjudligiga asoslanadi. Bundan tashqari, u dialekt va aksent atamalariga qaraganda kengroq ma'no ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, Britaniya standart tili, Amerika standart tili kabi.

²⁹ Balogné Bérces Katalin. *Beginner's english dialectology: an introduction to the accents and dialects of English.* Budapest 2008

³⁰ Trudgill, Peter and Chambers, Jask K. (1991, eds). *Dialects of English: Studies in Grammatication-Mariation.* London: Longman.

Buyuk Britaniya, ya'ni Angliyada, shuningdek, butun Yevropada ingliz tilida juda ko'p geografik tafovutlar mavjudligining asosiy sababi tilning tarixiyligidir. Til bir vaqtning o'zida ikki o'lchovda ishlaydi, ya'ni yashaydi: kosmosning gorizont o'lchami ko'rinishida, u diaxronik o'q deb ataladi va vaqtning vertikal o'lchami ko'rinishida, bu esa sinxron o'q deb ataladi. Bundan tashqari, e'tiborga olinishi kerak bo'lgan uchinchi, ya'ni ijtimoiy jihat ham mavjud bo'lib, u ijtimoiy sinflar o'rtasidagi farqni ham qamrab oladi. Bizningcha, bunday noaniqlikni tillar tarixi bilan bog'lab tushunsak va uni o'rgansak muammoga yechim topiladi. Demoqchimizki, ingliz tilining ikki mintaqaga xos dialektlarini, aniqrog'i, bir tilning asosida yuzaga kelgan ikki dialectal leksikasidagi o'zgarishlarni va ularga bo'lgan munosabatni tushunish uchun ingliz tilining ijtimoiy tarixini ko'rib chiqish muhimdir.

Bobning **“Turli tizimli tillardagi ijtimoiy dialektal leksikaning qiyosiy va tanqidiy tahlili”** deb nomlangan uchinchi faslida ijtimoiy leksika hamda sotsiolektlarning lingvistik jihatlari yoritilgan. Ijtimoiy, ya'ni sotsial dialekt tushunchasiga oydinlik kiritishdan oldin, shu narsani ta'kidlash joiz deb o'ylayman. Bu ham bo'lsa, adabiy til normasiga allaqachon qabul qilingan so'z va iboralarni (jargon va argolarni, kasb – hunar so'zlarini), masalan, *baks* yoki *ko'ki* (pul, dollar), *qora dori* (gerayin, narkotik), *tanka* (qo'llab-quvvatlovchi homiy) kabi jargonlarni; *tom suvoq* (xonandalar tilida tekinga boriladigan to'y xizmati), *qo'l haqqi* (tibbiyot hamshiralari tilida ukol muallajasiga beriladigan pora, ya'ni pul), *jiyan operatsiyasi* (oliy ta'lim o'qituvchilari tilida pul evaziga o'qishga kiritib qo'yiladigan abituriyent) kabi argolarni; *chorak*, *reyting*, *kredit ta'lim*, *kredit yig'ish*, *modul kredit* kabi kasb-hunar (professional leksika) so'zlarni dialektologiya sohasining o'rganish obyekti sifatida qaralishi masalasidir. Bunday qarash ko'proq g'arb adabiyotlarida aniq seziladi.³¹ Afsuslar bo'lsinki, bunday tahlil o'zbek tilshunosligida ham yo'q emas.³²

Ko'rinadiki, tilning ijtimoiy dialekti (ijtimoiy leksikasi) masalasi ko'pgina bahs va munozaralarga sabab bo'ladigan jarayonga o'xshaydi. Ayniqsa, dialektal leksikaning tillar tizimidagi tadqiqida bu narsa yana ham aniqroq ko'rinadi. Uning muammoliligi shundaki, bu jarayon ko'p adabiyotlarda dialektologik birlik sifatida o'rganib kelinmoqda.³³ To'g'ri, ijtimoiy leksika tilda qo'llanilisi nuqtayi nazaridan dialektlarga o'xshash, ya'ni uning ham tilda qo'llanilishi chegaralanganligidir. Garchand o'zbek tilshunosligida ushbu masalaga ma'lum manoda to'g'ri yondashish mavjud bo'lsa-da, biroq ba'zi bir adabiyotlarda xorij adabiyotlar singari ijtimoiy leksikani dialektologiya fanining o'rganish obyekti deb uqtiriladi.

Inglizlar ijtimoiy lahjalar (dialektlar)ga har qanday ijtimoiy guruhga xos bo'lgan lingvistik birliklar to'plamini: jargonlarni, kasbiy argolarni hamda kasb-hunar so'zlarini kiritadi. Masalan, *askar jargoni*, *maktab jargoni*, *jinoiy jargonlar*, shuningdek, ma'lum ijtimoiy guruhlarning aloqa vositasi bo'lmish argolarni ham kiritadi.³⁴ Ta'kidlash kerakki, bunday jarayonga nisbatan ular *sotsiolektlar* terminiga

³¹ Ashirboev S. O'zbek dialektologiyasi. - Toshkent, 2011, 2013.

³² Ишаев А. Узбек диалектал лексикографияси. – Тошкент: Фан, 1990; Ashirboev S. O'zbek dialektologiyasi. - Toshkent, 2011, 2013. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. –200 б.

³³ Balogné Bérces Katalin. Beginner's english dialectology: an introduction to the accents and dialects of English. Budapest 2008

Ashirboev S. O'zbek dialektologiyasi. - Toshkent, 2011, 2013.

³⁴ Balogné Bérces Katalin. Beginner's english dialectology: an introduction to the accents and dialects of English. Budapest 2008

murojaat qilishadi, shuningdek, bu jarayonni ikkinchi darajali sotsiolingvistik me'yorlar tizimiga ega bo'lgan va ma'lum bir professional-korporativ va antisotsial jamiyatga funksional ravishda birlashtirilgan til mavjudligining barqaror shakllari sifatida – qarashadi.³⁵ Demak, ijtimoiy dialektal lahjalarga ma'lum bir ijtimoiy hamjamiyat yoki insonlar guruhi tomonidan qo'llaniladigan tilning variantlari sifatida qaraladi. Bundan tashqari, ular professional dialektlarni va jargonlarni o'z ichiga oladi.³⁶ Inglizlar ijtimoiy leksika tushunchasini ham lahja, ham dialektlar bilan bog'lab tushuntirishadi, ularga har qanday ijtimoiy guruhga xos bo'lgan lingvistik birliklar to'plami sifatida qaraydi. Masalan, *askar jargoni*, *maktab jargoni*, *jinoiy jargonlar*, shuningdek, ma'lum ijtimoiy guruhlarning aloqa vositasi bo'lgan argolar ham kiritiladi³⁷ va ular bunday vaziyatda *sotsiolektlar* terminiga murojaat qilishadi, shuningdek, bu jarayonni ikkinchi darajali sotsiolingvistik me'yorlar tizimiga ega bo'lgan va ma'lum bir professional-korporativ va antisotsial jamiyatga funksional ravishda birlashtirilgan til mavjudligining barqaror shakllari sifatida qarashadi³⁸.

Ko'pgina tillarda, jumladan inglizlarda ham ijtimoiy dialektlar orasida jargon alohida o'rin tutadi. Ilk ingliz lug'atlarida *jargon* tushunchasi *cant* atamasi bilan sinonim sifatida qo'llanilgan. Faqat XIX asrning oxirida tilshunoslar adabiy bo'lmagan lug'atning uchta turini aniqladilar, uni *kant*, *jargon* va *jargon* (ular kasb bilan bog'liq argolarni ham shunday ataydi)larga bo'lishdi. G'arb va rus olimlari jargonning turli ta'riflarini ilgari surdilar. G'arb tilshunosligida jargonni standart tilga qarama-qarshi qo'ymaydi, balki uning ijtimoiy va kasbiy o'ziga xos xususiyatlari orqali aniqlash tendensiyasi mavjudligini aytadi. Ko'pgina g'arb olimlari jargonning yangiligini ta'kidlaydilar va uni lingvistik yangiliklarga tobe bo'lgan til varianti sifatida tavsiflaydilar. Ba'zi mahalliy olimlar orasida jargonni ikkinchi darajali so'zlashuv normasi degan fikrni ilgari surishadi. Ba'zi olimlar esa nutqda jargonlar ko'pincha birinchi darajali me'yor (dialektizmlar, jargonizmlar va professionalizmlar bilan aralashib ketadi va to'qnashuvi natijasida ularning tilga (nutqqa) o'zaro kirib borishi kuzatiladi, deydi.³⁹ Ko'rinadiki, tildagi jargonlarga **Slang**, ya'ni, maxsus periferik leksik qatlam sifatida qaraladi, u o'ziga xos lug'at va professional dialektlarning frazeologiyasi qatlamini, shuningdek, adabiy bo'lmagan nutqning umumiy tushunilgan emotsional ekspressiv lug'ati va frazeologiyasini o'z ichiga oladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Dialektologik birliklar lingvokulturologiyaning tekshirish obyekti sifatida”** deb nomlanadi.

Ushbu bobning birinchi fasli **“Turli tizimli tillar dialektal leksikasining madaniy konseptlari va lingvokulturologik tahlili”** deb nomlanib, bunda dialektizmlar millat etnosi sifatida tahlilga tortilgan.

³⁵ Коровушкин В.П. Теоретические основы контрастивной социолектологии. Череповец: ЧГУ, 2009. 246 с.

³⁶ Маковский М.М. Современный английский сленг: Онтология, структура, этимология. Учебное пособие. Изд. 2-е, доп. - М.: Книжный дом «Либроком», 2005. - с. 41

³⁷ Волошин Ю.К. Социально-идеологическая детерминация социолектизмов // Функционирование языка как следствия идеологического воздействия: сб. науч. тр. – Краснодар: Издательство Кубан. ун-та, 1988. – С.14-19.

³⁸ Коровушкин В.П. Теоретические основы контрастивной социолектологии. – Череповец: ЧГУ, 2009. – 246с.

³⁹ Маковский М.М. Современный английский сленг: Онтология, структура, этимология. Учебное пособие. Изд. 2-е, доп. - М.: Книжный дом «Либроком», 2005.

Ma'lumki, dialektal leksika lingvomadaniyatshunoslik fanining eng muhim madaniy konseptlaridan biri bo'lib, ularning lingvokulturologik asoslari hatto shu fan yuzaga kelishiga ham sabab bo'lgan. Dialektizmlardagi milliy etnos tushunchasi tildagi har qanday milliylikni o'zida tashuvchi til hodisalaridan (birliklardan) yuqoriroq, aniqroq va ravshanroqdir. Shuning uchun ham ishimizning aynan shu bobida (shu faslida) dialektal leksikaning milliy etnosga qanchalik aloqador ekanligini aniq ilmiy asoslar va namunalar yordamida tadqiq etishga harakat qildik.

Har bir xalq tilida, aniqrog'i, uning dialektlarida shunday so'zlar bo'ladiki, bunday so'zlar o'sha xalq adabiy tilining asosiy lug'at fondidan joy olmasligi mumkin. Biroq ulardagi milliy kolorit, milliy ruh dialektizmlar tarkibida yashashga imkoniyat beradi. Aynan shunday dialektizmlarni adabiy til me'yoriga olib kirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, Samarqand va Buxoro dialektida qarindoshlikni ifodalovchi **bo'la** so'zi keng ishlatilgani holda, bu so'z Farg'ona, Andijon, Toshkent dialektlarida umuman qo'llanilmaydi. Yoki, aksincha, toshkentcha dialektida qo'llaniladigan **opog'oyi, opog'doda** so'zlari Samarqand va Buxoro shevalarida umuman uchramaydi. Ba'zi shevalarimizda **-lar** grammatik ko'plik qo'shimchasi hurmat ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi. Bizningcha, morfologik dialektizmlardagi bunday imkoniyatlarni ma'lum bir maqsadlarda, masalan, **-lar** ko'plik affiksini hurmat ma'nosida qo'llash adabiy tilimizning og'zaki ko'rinishida qo'llashimiz o'rinlidir. Bundan tashqari, milliy qadriyatlarimizda ham bu munosabat azaldan mavjud. Masalan, dialektizmlardagi milliylik xalq maqollarida yaqqol aks etishini ko'rib chiqamiz:

ADABIY MATN	FARG'ONA SHEVASIDA
Tashlandiqqa tosh tegmas.	<i>Tashlandiqqa it boqmas.</i>
Ayagan ko'zga cho'p kirar.	<i>Ayagan ko'zga xas kirar.</i>
Qaynonali kelin – gul kelin, Qaynonasiz kelin – tul kelin.	<i>Qaynonali kelin qarqara kelin, Qaynonasiz kelin masxara kelin.</i>
Gadoy arazlasa, to'rvasiga ziyon.	<i>Gadoy arazlasa, xaltasiga ziyon.</i>
Lo'lining eshagini sug'orib, pulini ol.	<i>Lo'lining xachirini sug'orib, pulini ol.</i>
Burgaga achchiq qilib, ko'rpangni kuydirma.	<i>Burgaga jahl qilib, ko'rpangni yondirma.</i>
Tentakka teng kelsang, terak bo'yi sakraydi.	<i>Tentakka teng kelsang, terak bo'yi sapchiydi.</i>
Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar, Yomon gap bilan musulmon dinidan chiqar.	<i>Yaxshi gap bilan yilon uyidan chiqar, Yomon gap bilan pichoq qinidan.⁴⁰</i>

Ayniqsa ijodkorlarimiz dialektizmlardan maqsadli foydalanib, ular asosida milliy konsept yaratishga muvassar bo'ladilar. Adiblarimiz dialektizmlardan ikki o'rinda foydalanadi:

1) dialogik nutqda qahramonning muayyan sheva vakili ekanligini ko'rsatish va mahalliy koloritni berish maqsadida;

⁴⁰ Barcha maqollarni tadqiqotchi 2023-yil dekabr va yanvar Farg'ona viloyati Bag'dod tumanining Mirzaobod hamda Samarqand qishlog'i keksalari tilidan yozib olgan.

2) adabiy tilda sinonimi bo‘lmagan so‘zlarni majburan qo‘llaydi. Masalan, yozuvchi Komil Avaz “Qo‘nalg‘a” asarida **sazaq** (o‘simlik nomi), **tuncha** (mis qumg‘on), **kalchaya** (qumlikning taqir joyi), **itdunak** (yovvoyi qovun turi) kabi dialektal so‘zlarni qo‘llaydi. Hatto butun boshli badiiy asarda mahalliy sharoit, mahalliy mentalitetni, ruhiyatni ifodalashda to‘lig‘icha sheva xususiyatlaridan foydalangan asarlar mavjud. Bunga J.Sharipovning “Xorazm”, Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli “**Ingliz tili dialektlarining lingvokulturologik tadqiqi**”ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ingliz tildagi shevaga xos birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari yoritilgan. Am.E ning Br.E dan yana bir ajralib turadigan xususiyati sifatida E.C.Demin va N.V.Kapurlar [r] tovushini beradi, bu Am.Eda aniqroq va barcha pozitsiyalarda talaffuz qilinadi: shark [ʃɑ:rk], part [pa:rt], shore [ʃɔ:r]. Bundan tashqari, ular “ask, class, dance, demand kabi so‘zlarda inglizcha [a:] o‘rniga [æ] tovushi, [o] o‘rniga [a:], so‘zlarda talaffuz qilinishini qayd etadilar: hot, top, gone, want, rob, o‘rniga [ju:] - [u:], d, n, s, t harflaridan keyin (duplicate, new, supremacy, tune)”⁴¹.

Kuzatishlardan shu narsa aniq bo‘ldiki, u ham bo‘lsa, ingliz lahjalarining o‘ziga xosligini, aniqrog‘i, ularda yuz berishi mumkin bo‘lgan lingvomadaniy jihatlarni asosan xalq maqollarida va hikmatlarida ko‘rish mumkin bo‘ladi. Ba’zi bir maqollar asosan Britaniya inglizlarida (Br.E), boshqalari esa Amerika inglizlarida (Am.E) ishlatiladi. Ba’zan ularning ko‘p qismi Britaniyada ham, Amerikada ham qo‘llaniladi. Albatta, ulardagi farq seziladi.

A bad workman blames his tools. (Br.E) – Usta odam o‘zini, no‘noq esa asbobini yomonlaydi.

A change is as good as a rest. (Br.E) – Ba’zan o‘zgarishlar ham xuddi dam olishday foydali bo‘lishi mumkin.

A new broom sweeps clean. (Br.E) – Bu maqol tashkilot boshqaruvini yangi odam o‘z qo‘liga olganida va ko‘plab o‘zgarishlar kiritganda ishlatiladi.

A penny saved is a penny earned. (Br.E) – Toma-toma ko‘l bo‘lur ma’nosida qo‘llaniladi.

A rolling stone gathers no moss. (Br.E) – Aytilishicha, sayoq yursang, tayoq yeysan ma’nosida.

A stitch in time saves nine. (Br.E) – Bu degani, darhol harakat qilish yoki muammolarni tez hal qilish yaxshiroq ekanligini anglatadi, chunki agar harakat keyinroqqa kechiktirilsa, ishlar yomonlashadi va muammolarni hal qilish uchun ko‘proq vaqt kerak bo‘ladi.

Ko‘rinadiki, ingliz tili dialektlaridagi madaniy tafovutlar aynan shu kabi maqollarda nisbatan yaxshiroq ochilgan, chunki har bir maqol ma’nosida shu dialekt a’zosining turmush tarzi ifodalangan bo‘ladi.

Uchinchi bobning uchinchi fasli “**Ijtimoiy dialekt hamda britanacha aksentlarning lingvomadaniy xususiyatlari**” deb nomlanadi.

Ijtimoiy dialekt hamda britanacha aksentlarning lingvomadaniy xususiyatlarini yoritish Buyuk Britaniya ma’muriy va siyosiy qismlari doirasida olib borilgan:

⁴¹ Волошин Ю.К. Социально-идеологическая детерминация социолектизмов // Функционирование языка как следствия идеологического воздействия: сб. науч. тр. – Краснодар: Издательство Кубан. ун-та, 1988. – С.237.

Angliya, Uels, Shotlandiya va Shimoliy Irlandiya dialektlariga ham urg‘u berilgan. Buyuk Britaniyada ingliz tilidan tashqari keltlar guruhiga kiruvchi boshqa tillar ham qo‘llaniladi. Biz imkon qadar bir standart til ichidagi mintaqa tillarining o‘ziga xosligini, madaniy jihatdan farqlanishini tushuntirishga harakat qildik: Shotlandiya, Uels, Irland, Gael va Kornish. Bu kabi mamlakatlarning asosiy tili, albatta, ingliz tilidir: aholining atigi 10-20 foizi o‘zlarining ona tilisini bilishadi. Ularning ko‘pchiligi ingliz tilini biladi. Biroq ular ingliz tiliga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Shotlandiyadagi ingliz tilining mumtoz tildan ajratib turadigan ba’zi xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Shotlandlarning ingliz tilisida “ko‘paytirilgan raqam” tushunchasi mavjud. Buni 2-shaxsning kishilik olmoshi misolida ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni: “you” = sen va siz = yourself (siz)ning o‘zing(iz) (bir kishi), yourselves sizning o‘zingiz (ikki va undan ortiq kishi).

2. Fe’llarning davomiylik zamonlarida ko‘proq qo‘llaniladi: *I am desiring milk* (“*I want milk*” o‘rniga).

3. Shotlandlarning o‘z “so‘zlari” va iboralari bor:

Wee = kichik

Pinkie = kichik barmoq

Maid = qo‘riqchi

Yea = ha

What do you think? = *Qayerda yashaysiz?*

Pumpkin = yengil yuring

Shotlandlarda talaffuzning o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud bo‘lib, ular 5 ta unlini “yo‘qotganlar”. Masalan, ular “schwa” [ə] tovushini umuman ishlatmaydilar. Unda “*the*” [ðə] so‘zidagi kabi bir xil tovush talaffuz qilinadi.

Undosh tovushlarning talaffuzi ham har xil:

– [r] har doim talaffuz qilinadi;

– ovoqli [h] nafas olishda emas, balki ko‘proq kuchlanish bilan talaffuz qilinadi (deyarli nemis tilidagi kabi);

– ovoqli [t] unlilar ko‘pincha “yutiladi”, ya’ni o‘ta bilinar-bilinmas talaffuz qilinadi: “*computer*”.

Ayniqsa uelsning ohangdor intonatsiyalari boshqa inglizlashgan tillardan farqlidir. Shuning uchun ham ingliz tiliga mahalliy uels tili kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

1. Buni grammatik konstruksiyalarda hatto qo‘sh inkor (ingliz tilida taqiqlangan), aksincha, uchlik qo‘llagan holda ko‘rish mumkin: I **did not do to nobody nothing**. You see? (ko‘pincha so‘zlashuv tilida);

2. “**They**” egalik olmoshi sifatida ishlatilishi mumkin: *They- narsalar, they-narsalari*;

3. Fe’lning nostandart shakllari qo‘llaniladi: *He caught this* (hold o‘rniga);

4. Gapdagi so‘zlar tartibiga nisbatan erkinroq munosabat: *there is cold* ning o‘rniga *it is cold* (ekspressiv maqsadlarda so‘zlarning tartibini o‘zgartirish);

5. Juda tez-tez ishlatilmaydimi? savollardan keyin: *are you a teacher?, aren’t you?* (aniqlik bilan almashtirilishi mumkin - yes?)

6. Mahalliy so‘zlar ham bor:

Clennig = pul sovg‘asi,

Eisteddfod = madaniyat festivali,
Cutting = Munozara va boshqalar.

7. Talaffuz ham Received Pronunciation-RP (talaffuz me'yorlari)dan farq qiladi, lekin Shotlandiya versiyasi kabi "halokatli" emas. Ohangdor intonatsiyaga mavjud (yuqoriga va pastga).

Shimoliy Irlandiya dialektida ham o'ziga xos lingvokulturologik xususiyatlarni ko'rish mumkin:

1. Irlandlar ha yoki yo'q savollariga javob bermaydilar. Buning o'rniga ular savolning fe'lini takrorlaydilar: **Are you going to come Jack's party tonight? I am.** (*Bugun kechqurun Jeynning ziyofatiga borasizmi? - Men.*)

2. Ko'pincha Shimoliy Irlandiya aholisi "ikki barobar" gap qurilishdan foydalanadilar: **I don't have no time** (*Menda umuman vaqt yo'q.*)

3. Dialekt so'zlar ham bor, masalan: **snikers** - krossovkalar, **jumper** - to'xtatish, **riders** - har qanday jinsdagi juda jozibali odam va boshqalar.

Urg'u haqida. **Ehtimol, eng mashhur ingliz urg'usi Koknidir.** Londonning ayrim qismlarida keng tarqalgan:

1. Tovushlar [θ] va [ð]-[f] yoki hatto [v]ga aylanadi.

Think "fink" (yoki "vink") deb talaffuz qilinadi; birgalikda – **"together"** va boshqalar.

2. Ovoz [t] unlilar orasida yutib yuborilganday talaffuz qilinadi.

Matter - "maer"

3. Ovoz [l] o'rniga [w] talaffuz qilinadi.

milk - "miwk" (*miuk*) deb talaffuz qilinadi

4. [h] tovushi talaffuz qilinmaydi.

have "ave" deb talaffuz qilinadi

London shimolida keng tarqalgan Midlands aksenti ham mavjud bo'lib, uning boshqa aksentlardan farqi, bu aksentda ovoz qisqa bo'ladi. Masalan, "coop" va "moog" so'zlari kup va mug kabi talaffuz qilinadi.

Xullas, dialektizmlarning lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlashda biror-bir til shart emas, balki asosi bir tilga taalluqli bo'lgan shevalarning o'zi tadqiqotlar uchun manba bo'la oladi.

XULOSA

1. Har bir adabiy til milliy tilning yuqori bosqichi bo'lib, u me'yorlashtirilgan, aniq qonun-qoidalarga bo'ysundirilgan til shakli hisoblanadi. Adabiy til leksik jihatdan nisbatan barqaror, fonetik-fonematik va grammatik jihatdan muayyan qolipga tushgan, yagona orfografik va orfoepik qoidalarga amal qiladigan, milliy tilning sayqal berilgan yuqori bosqichidir. Adabiy til me'yorining vujudga kelishi tabiiy ravishda, ya'ni o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Buning uchun ma'lum bir tilning leksik-dialektal zaxirasi yuzaga kelgan bo'lishi lozim.

2. Har bir adabiy til o'zining tayanch dialektiga ega. Muayyan adabiy til shakllanishida mavjud shevalarning barchasi u yoki bu darajada ishtirok etadi, demak, shevalar adabiy til uchun asos va tayanch vazifasini bajaradi, ya'ni har bir shevalardan leksik, fonetik, grammatik xususiyatlar til fakti sifatida adabiy tilga olinadi. U bilan birgalikda taraqqiy etadi, chunki sheva jonli til bo'lib, u har doim

rivojlanishda, o'zgarishda bo'ladi. Agar adabiy til o'zining tayanch dialektiga ega bo'lmasa, u bora-bora iste'moldan chiqib ketadi.

3. Shevaga oid so'zlarning barchasini adabiy tilda qo'llash imkoniyati yo'q, ya'ni norma sifatida qabul qilingan so'z adabiy tilda bo'la turib, uning o'rnida shevaga oid so'zdan foydalanish maqsadga muvofiq emas, biroq tilda ma'lum bir tushunchaga nisbatan ehtiyoj sezilganda dialektal leksikaga murojaat qilinadi. Dialektal leksika tilshunoslikning dialektologiya bo'limining tadqiqot obyekti hisoblanadi. O'zbek tili dialektologiyasi ilmiy va amaliy yutuqlari bilan turkiy tillar guruhiga kiruvchi ko'pgina tillardan, hatto dunyo tillarining ba'zilaridan oldinda ekanligi bilan xarakterlanadi.

4. Xalqaro til sifatida ingliz tilining asosiy mahalliy lahjalari tilshunoslar tomonidan uchta umumiy kategoriyaga ajratiladi: Britaniya orollari dialektlari, Shimoliy Amerika va Avstraliya dialektlari. Ingliz tilidagi dialektlar nafaqat joy, balki muayyan ijtimoiy guruhlar bilan ham bog'lana oladi. Turli mamlakatlardagi standart ingliz tili bir-biridan farq qiladi va bu o'z o'rnida shu tilning dialekti hisoblanadi. Standart ingliz tilining yuzaga kelishi ko'pincha jamiyatning ma'lumotli, ya'ni ziyoli qatlamlari hamda rasmiy uslub bilan bog'liq masaladir.

5. Britanacha va amerikacha ingliz tillari dunyoning qolgan qismida o'rnatilgan ingliz tili uchun tayanch qoidalar hisoblanadi. Ko'pgina inglizlar keng tarqalgan britanacha ingliz tilidan foydalanadilar, biroq aksariyat ingliz tilli mamlakatlarga tarixan o'z ta'sirini ko'rsatib kelayotgan Amerika ingliz tilisining ustunligi sezilib turadi. Mustamlaka mamlakatlarning aksariyati britanacha yoki amerikacha ingliz tili ta'sirini saqlab qolgan holda, o'zlarining noyob dialektlarini ishlab chiqdilar, masalan, hind va filippin ingliz tillari kabi.

6. Turli tizimli tillar doirasida ingliz tili shevalari qadimgi qabila birlashmalarining muloqot vositasidan Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligining davlat tiliga, eng mashhur xalqaro tillardan biri bo'lgunga qadar uzoq yo'lni bosib o'tdi. Shuni alohida takidlash kerakki, ingliz tili dialektlari evolyutsiyasiga doimiy ravishda ikki xil (ichki va tashqi) omil ta'sir ko'rsatib keladi. Ichki omillar til tizimi rivojiga hissa qo'shgan bo'lsa, tashqi omil tarixan german tillari tarkibida paydo bo'lgan qadimiy an'analarning davom ettirilishidir.

7. Xalqaro til sifatida ingliz tilining dunyo tillaridan farqli jihati shundaki, ulardagi ba'zi faol shevalar, aniqrog'i, ularning nufuzga ega bo'lgan mahalliy lahjalari dunyoning ko'p qismida milliy standart til sifatida qabul qilingan. Asosiy lahjalardan tashqari, ingliz tilining ko'plab boshqa hudud va aksent shevalari ham bo'lib, ular ko'p hollarda ingliz tilidagi Kokkney, Skouse va Geordiye kabi bir nechta til turlarini o'z ichiga oladi. Kanada ingliz tilisi tarkibiga nyufaundlendcha ingliz tili va afro-amerikaliklarning og'zaki ingliz tilisi ("Ebonics") hamda Janubiy Amerika inglizlari tili va boshqalar kiradi.

8. Shevadagi qaysi sathning aks ettirilishiga qarab dialektizmlar ham leksik dialektizm, fonetik dialektizm va morfologik hamda sintaktik-stilistik dialektizm kabi turlarga bo'linadi. Har bir tilda dialektizmlar qatlami dastlab milliy tilning asosini yaratishda eng muhim manba bo'lib xizmat qiladi, keyin esa ularning tadrijiy takomilida milliy-madaniy xususiyatlar namoyon bo'lib boradi. Bunday so'zlar

badiiy adabiyotda sheva koloritini, aniqrog‘i, biror bir xalqning o‘ziga xos qadriyatini, madaniyatini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

9. Dialektizmlardan badiiy matnlarda erkin foydalaniladi. Tasvirlanayotgan personajning yoshi, ma’lumoti, kasbi, fe’l-atvori, qiliqlari va boshqa xususiyatlarini umumlashtirish, individuallashtirish, tipiklashtirish jarayonida xalq tili birliklari va ularning uslubiy imkoniyatlaridan, badiiy til vositalaridan foydalangan holda o‘ziga xos obrazlar yaratiladi.

10. Shevalar umumxalq tilining asosiy shakli bo‘lib, jamiyatning ma’lum bir etnik qatlami, ya’ni ma’lum bir mintaq va hududda yashovchi xalqlarga xos kommunikativ munosabatlarni aks ettiradi. Xalq tilini, xususan, dialektal leksikani o‘rganish tiliga taalluqli butun etnik madaniyatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirish imkonini beradi. Shu bois turli tizimli tillarda ijtimoiy dialekt va ularning konseptual asoslarini o‘rganish har bir xalqqa xos lingvokulturologik xususiyatlarni belgilaydi.

**SCIENTIFIC COUNCIL PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01
ON AWARDING OF SCIENTIFIC DEGREE AT
KOKAND STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE**

UZBEKISTAN STATE UNIVERSITY OF WORLD LANGUAGES

KHUSANOV ELDORBЕК DAVLATJON OGLI

**FUNCTIONAL-SEMANTIC AND LINGUOCULTUROLOGICAL
FEATURES OF DIFFERENT SYSTEM LANGUAGES DIALECTAL
LEXICON**

10.00.11 – Language theory. Applied and computational linguistics

**ABSTRACT of the dissertation
of doctor of philosophy (PhD) on philological sciences**

Kokand – 2025

The theme of the dissertation of doctor of philosophy (PhD) was registered by the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under number № B2022.2.PhD/Fil.2699.

The doctoral dissertation has been carried out at Uzbekistan state university of world languages. The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, Russian, English (resume)) and is placed on the Scientific Council website (www.kspi.uz) and the website of «Ziyonet» information and educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor: **Madjidova Rano Urishevna**
Doctor of Philological Sciences (DSc), professor

Official opponents: **Umarova Nargizaxon Rustamovna**
Doctor of Philological Sciences, professor

Xayrullayev Xurshid Zayniyevich
Doctor of Philological Sciences (DSc), professor

Leading organization: **Namangan State Institute of Foreign Languages**

The defense will take place on «27» mart 2025 9:00 at the meeting of the Scientific Council PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 at Kokand State Pedagogical Institute. Address: 150700, Uzbekistan, Kokand, Turon street, 23. Tel: (99873) 542-38-38; fax: (99873) 542-11-43; e-mail: quqondpi@umail.uz.

This dissertation can be reviewed at the Information Resource Centre of Kokand State Pedagogical Institute is registered under № 1. Address: 150700, Uzbekistan, Kokand, Turon street, 23. Tel: (99890) 508-64-42.

The abstract of the dissertation was distributed on «18» marek 2025.
(Registry record No. 24 dated «18» marek 2025).


M.Kh. Khakimov
Chairman of the Scientific Council on
awarding of Scientific Degrees, Doctor
of Philological sciences, Professor


A. Turakhojayeva
Scientific Secretary of the Scientific
Council on awarding of Scientific
Degrees, Candidate of Philological
sciences, Docent


A.I. Ziyayev
Chairman of the Scientific Seminar at
the Scientific Council on awarding of
Scientific Degrees, Doctor of
Philological Sciences, Professor



INTRODUCTION (abstract of PhD thesis)

Relevance and necessity of the dissertation topic. In world linguistics, special attention is paid to the study of the essence of social dialectics in various systematic languages, the regional and local features of dialectal lexicon, and the issues of bounded and unbounded lexicon. It is gratifying that the scope of scientific research carried out in modern areas of linguistics such as sociolinguistics, ethnolinguistics, cognitive and communicative linguistics, as well as the current development and progress of anthropolinguistics and linguocultural studies, is significantly increasing within the framework of this topic. At this point, it should be said that the literal founder of the science of sociolinguistics, F. de Saussure, was absolutely right when he thought a century ago that the study of the social aspect of language in the same context as the language, that is, on the basis of the conditions that exist in the same time and space, can be of great importance in revealing the full scientific essence of any linguistic units, because the scientific study of the social aspects of language is one of the most important tasks that linguistics can carry out today. More precisely, the analysis of the psyche of the language, together with the personal factor that ensures its viability, that is, in a dialectical relationship, is one of the most important requirements of modern linguistics.

